

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ИҚТИСОДИЁТ УНИВЕРСИТЕТИ




**“ЎЗБЕКИСТОНДА СОЛИҚ ВА МОЛИЯ ТИЗИМИНИ
РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ КОНЦЕПЦИЯЛАРИНИ
АМАЛГА ОШИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ”**

**Республика илмий-амалий анжумани
материаллари тўплами
2019 йил 9 ноябрь**

**ПЕРСПЕКТИВЫ РЕАЛИЗАЦИИ КОНЦЕПЦИИ
РАЗВИТИЯ НАЛОГОВОЙ И ФИНАНСОВОЙ
СИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ**

**Сборник материалов
республиканской научно-практической конференции
9 ноября 2019 года**

Тошкент - 2019



Ўзбекистонда солиқ ва молия тизимини ривожлантиришнинг концепцияларини амалга ошириш истиқболлари. Илмий-амалий анжуман мақолалари тўплами (2019 йил 9 ноябр). – Т.: ТДИУ, 2019.- 517 б.

Мазкур тўпламда иқтисодиётни либераллаштириш ва ривожлантириш давлат сиёсатининг ҳозирги шароитида солиқ ва молия тизимини янада такомиллаштиришнинг концептуал асосларини илмий-назарий, фундаментал ва амалий жиҳатларига бағишлиланган илмий мақола ва маъruzalар мазмуни умумлаштирилган. Шунингдек, тўпламда мамлакатимизда молия тизимидағи ислоҳотлар, эришилган ютуқлар, мавжуд циклик ва фундаментал тавсифдаги муаммолар ҳамда истиқболда янада ривожлантириш йўналишлари каби долзарб аҳамиятта эга масалалар юзасидан таклиф ва тавсиялар баён этилган.

Тўпламга олий ўкув юртларида ушбу соҳада илмий изланишлар олиб бораётган профессор-ўқитувчилар, илмий тадқиқот марказларининг илмий ходимлари, турли мулкчилик шаклларидағи корхона ва ташкилотларнинг етакчи мутахассислари, докторантлари, мустақил изланувчи, ёш олимлар, магистр ва иқтидорли талабаларнинг мақолалари киритилган.

Мақолалар тўплами олий ўкув юртлари профессор-ўқитувчилари, ёш олимлар, илмий ходимлар ва амалиётдаги иқтисодчилар учун мўлжалланган.

Масъул муҳаррир: т.ф.д., проф. К.А.Шарипов

Тақризчилар:

и.ф.д., проф. Н.Г. Каримов,
и.ф.д., проф. М.И. Алимардонов,
и.ф.д., проф. Н.Р. Қўзиева.

Таҳрир ҳайъати:

и.ф.д., доц. Ш.И. Мустафақулов,
и.ф.н., доц. М.П. Эшов,
и.ф.д., доц. С.К. Худойқулов,
и.ф.д., проф. А.У. Бурханов,
и.ф.н., доц. Х.А. Қурбонов,
и.ф.н., доц. Ч.А. Қулматов.

Мазкур тўпламга киритилган маъруза тезислари мазмуни, ундаги статистик маълумотлар ва меъёрий ҳужжатлар санасининг тўғрилиги ҳамда танқидий фикр-муоҳазаларга муаллифларнинг ўзлари масъулдорлар.

	шартлари.....	219
Б.А.Усмонов	Акциядорлик жамиятлари капитал қийматини оширишда самарадорлик кўрсаткичларининг аҳамияти (кварц аж мисолида).....	221
Н.Х.Ҳамдамова	Ўзбекистонда инвестицион лойиҳаларни самарали амалга оширишда инвестицион муҳитнинг муҳим жиҳатлари.....	225
Х.Ф.Очилов	Бюджетни ўрта муддатли режалаштириш ва натижавийликка йўналтирилган бюджетлаштиришга ўтишнинг маҳаллий бюджет лойиҳаларни тузишдаги аҳамияти ва ўрни.....	227
М.Ашурев	Кичик бизнесни ривожлантиришда кичик саноат зоналари муҳим восита сифатида.....	229
О.Хазратқулов	Соғлиқни саклаш тизими инфратузилмасини ривожлантиришда давлат - хусусий шерикчилик ҳамкорлигидан фойдаланиш юзасидан акш тажрибаси.....	231
Ж.М.Жўраев	Тижорат банкларининг халқаро рейтинг даражасини оширишда бухгалтерия ҳисоби ва ҳисботининг ўрни ва ролини ошириш масалалари.....	232
N.Sh.Fayziyeva	Financial sector development.....	235
Б. Тошбоев	Маҳаллий молия ва уни барқарорлигини таъминлашнинг иқтисодий омиллари.....	237
Ф.Р.Холбекова	Оқилона солиқ сиёсати: ҳудудлар иқтисодий - ижтимоий ривожланишининг асосий негизидир.....	239
Ф.Я.Ильясов	Ҳудудларни ижтимоий-иктисодий ривожлантиришда маҳаллий бошқарув органлари томонидан капитал бозоридан ресурслар жалб этиш таъсири.....	242
Х.Сайфиддинов, Б. Тошбоев	Ҳудудлар молиявий-иктисодий салоҳиятидан оқилона фойдаланиш йўллари.....	245
2-СЕКЦИЯ. ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА ЛИБЕРАЛЛАШТИРИШДА БЮДЖЕТ-СОЛИҚ СИЁСАТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ		
С.К.Худойкулов	Солиқ сиёсати ва унинг самарадорлигини баҳолаш кўрсаткичлари.....	247
Б.Б.Беркинов, Ё.М.Абдурахимова, А.Г.Жеткербаева	Ўзбекистон Республикаси солиқ кодексига киритилган ўзгаришлар таҳлили.....	251
М.И.Алмардонов	Мамлакатимизда солиқ маъмурчилигининг асосий йўналишлари.....	254
М.И.Алмардонов, Д.Иброҳимов	Солиқ тушумлари ҳисобини ташкил этишда дастурий маҳсулларнинг ўрни.....	256
Н.Р.Кузиева, А.У.Амирев	Мамлакатимизда олиб борилаётган Бюджет-солиқ сиёсати ва уни солиқларни йигилувчанлик даражасига таъсири.....	259
Н.Р.Кузиева, Ё.Т.Иброҳимов	Ривожланган давлатларнинг электрон тижоратни солиққа тортиш амалиётидаги ёндашувлари ва уларнинг ўзига хос жиҳатлари.....	262
N.Kuziyeva, A.Abdullayev	Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida aksiz solig'i va uni optimallashtirish.....	265
N.R.Kuziyeva, M.Nabihev	Mamlakatimizni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning tutgan o'rni va ahamiyati.....	268
N.M.Maxmudov N.R.Avazov	Investitsion muhitni shakllantirishda mamlakatda olib borilayotgan soliq siyosatining ahamiyati.....	271
Н.Р.Кузиева, А.А.Усманова	Пути совершенствования налогового администрирования на примере зарубежного опыта.....	275
А.Х.Пардаев, З.А.Пардаева	Енгил саноат корхоналарининг молиявий барқарорлигини оширишда солиққа тортиш механизмини ривожлантириш йўналишлари.....	278

1) Xorijiy investisiyalarni mamlakatimizda rivojlantirishda hali tatbiq etilmagan hamda taraqqiy etmagan sohalarga ko'proq jalb etish zarur. chunki, buning natijasida mazkur tarmoq xalqaro talablarga mos ravishda rivojlanadi hamda o'zimizda ishlab chiqarilmagan, hozirda talab yuqori bo'lган mahsulotlarni ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi.

2) Hozirgi kunda yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarning tashqi savdo faoliyatida eksport hajmi yuqori bo'lган hamda katta hajmda daromad keltiruvchi sohalarni mamlakatimizda ham rivojlantirib, xorijiy investisiyalarni ushbu sohaga ham yo'naltirishni tartibga solish zarur.

Xulosa tariqasida shuni ta'kidlashimiz lozimki, xorijiy investisiyalar iqtisodiyotimizni rivojlantirish uchun zarur vosita bo'lib, uni muayyan tartib va dastur asosida yo'naltirilsa, investitsion mablag'lardan samarali foydalanishga, iqtisodiyotni tizimli va barqaror o'sishiga olib keladi. Xorijiy investisiyalarni jalb qilishda investitsiya muhitini yaxshilash, bozor iqtisodiyoti islohotlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish, mulk huquqini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

**i.f.d., prof. N.M.Maxmudov,
N.R.Avazov talaba TDIU**

INVESTITSION MUHITNI SHAKLLANTIRISHDA MAMLAKATDA OLIB BORILAYOTGAN SOLIQ SIYOSATINING AHAMIYATI

Milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirishning eng samarali va foydali yo'nalishi bu iqtisodiyotga investisiyalar jalb qilishdir. Iqtisodiyotga investisiyalar kirib kelishi hajmini oshirish uchun birinchi o'rinda qulay investitsion muhit shakllantirish talab qilinadi. Investitsion muhit shakllantirishning muhim dastaklaridan biri bu shu mamlakatda olib borilayotgan soliq siyosati hisoblanadi. To'g'ri olib borilayotgan soliq siyosati asosida mamlakat investitsion muhitini yaxshilash mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947 sonli farmonida investitsion muhitni yaxshilash hamda soliq yukini kamaytirish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilab qo'yilgan:

- investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni faol jalb qilish;
- soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddallashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatichilagini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarни kengaytirish.

Harakatlar strategiyasi yuqoridagi ikki eng muhim yo'nalishlar to'g'risida ustuvor vazifalar belgilangan. Bunda bu ikki iqtisodiy kategoriya o'zaro bir-biriga bog'liq hisoblanadi. Chunki soliq stavkasi qanchalik past darajada bo'lsa, investorlarning bu mamlakatga investitsiya kiritishga bo'lган qiziqishi yuqori bo'ladi.

Bundan tashqari Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning **2019 yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida** joriy yilda amalga oshiriladigan soliq siyosati hamda investitsiya muhitini shakllantirishga doir amalga oshiriladigan muhim amaliy ishlar haqida quyidagi fikrlarni bildirib o‘tgan edilar: “Xorijiy investitsiyalarini keng jalb qilish uchun mamlakatimizning investitsiya salohiyatini to‘la namoyon etish choralarini ko‘rishimiz kerak. Biz iqtisodiyotimizga sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo‘yicha investitsiya loyihalarini puxta shakllantira olsak, bu masalada ijobjiy natijaga erishish mumkin. Fuqarolarimiz soliqdan qochish emas, uni vaqtida to‘lashdan manfaatdor bo‘lishi kerak. 2019 yildan boshlab joriy etilayotgan yangi soliq konsepsiyasining eng asosiy g‘oyasi soliq yukini kamaytirish, sodda va barqaror soliq tizimini qo‘llashni ko‘zda tutadi. Shu orqali iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish, tadbirkor va investorlar uchun har tomonlama qulay muhit yaratishga erishish mumkin. Soliq yukini kamaytirish, biznes yuritish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish “yashirin” iqtisodiyotga barham berishning yagona yo‘lidir. Shuning uchun bu borada ta’sirchan choralarni nazarda tutadigan alohida dastur ishlab chiqishimiz zarur”[2].

Soliq yukini kamaytirish asosida kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish mumkin. Bundan ko‘rinib turibdiki, agar soliq yuki kamaytirilsa, davlat budgetiga soliqdan tushadigan tushumlar kamayadi. Buni hal qilishning oddiy chorasi bor, bu shuni ko‘rsatadiki, agar soliq stavkasi kamaytirilsa, mamlakatga investitsiya kiritish hajmi oshadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, investitsiya hajmi oshishi mamlakatda sanoat korxonalarining soni oshishiga olib keladi. Har bir yangi qo‘shilgan korxona ham soliq to‘laydi hamda soliq to‘lovchi hisoblanadi. Bunda yangi korxonalar soni ko‘payishi asosida yana budgetga tushadigan tushum ko‘payishi mumkin. Bundan shuni ko‘rishimiz mumkin-ki, soliq siyosati bevosita investitsiyaga yoki investitsion muhitga ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasiga chet el investitsiyalarining kiritish shakllari quyidagilar hisoblanadi:

- O‘zbekiston Respublikasining yuridik va (yoki) jismoniy shaxslari bilan birgalikda tashkil etilgan xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlarining, banklar, sug‘urta tashkilotlari va boshqa korxonalarning ustav jamg‘armalarida va boshqa mol-mulkida ulush qo‘shib qatnashish;
- chet ellik investorlarga to‘liq qarashli bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlarini, banklar, sug‘urta tashkilotlari va boshqa korxonalarni barpo etish va rivojlantirish;
- mol-mulk, aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qarz majburiyatlarini sotib olish;
- intellektual mulkka, shu jumladan mualliflik huquqlari, patentlar, tovar belgilari, foydali modellar, sanoat namunalari, firma nomlari va nou-xaug, shuningdek ishchanlik nufuziga huquqlar kiritish;
- kontsessiyalar, shu jumladan tabiiy resurslarni qidirish, ishlab chiqish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga bo‘lgan kontsessiyalar olish;

- savdo va xizmat ko‘rsatish sohalari obyektlariga, turar joy binolariga ular joylashgan yer uchastkalari bilan birgalikda mulk huquqini, shuningdek yerga egalik qilish va undan foydalanish (shu jumladan ijara asosida foydalanish) hamda tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqlarini sotib olish orqali.

O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki moliya yilda boshlanadigan yoki tugaydigan o‘n ikki oygacha bo‘lgan istalgan davr mobaynida 183 kun yoki undan ko‘proq muddatda O‘zbekistonda turgan jismoniy shaxs O‘zbekiston Respublikasining rezidenti deb qaraladi. O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lmagan jismoniy shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi hududidagi manbalardan olingan daromadlar bo‘yicha soliq solinadi. Xuddi shunday vaziyat xorijiy yuridik shaxslarni soliqqa tortishda ham yuzaga keladi. Shunday qilib, O‘zbekistonda ta’sis etilgan yoki ro‘yxatdan o‘tkazilgan yuridik shaxs, shuningdek O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida ro‘yxatdan o‘tgan, bosh korxonasi O‘zbekistonda joylashgan yuridik shaxs O‘zbekiston Respublikasining rezidenti hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lmagan yuridik shaxslarga O‘zbekiston hududidagi manbalardan olgan daromadlari (foydalari) bo‘yicha soliq solinadi. Chet ellik jismoniy va yuridik shaxslardan soliqlar va yig‘imlarni undirish o‘zaro kelishuv asosida to‘xtatilishi yoki cheklanishi mumkin, basharti tegishli chet davlatda ham O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslariga nisbatan xuddi shunday chora-tadbirlar ko‘rilgan bo‘lsa.

O‘zbekiston Respublikasidagi barcha korxonalar uchun belgilab qo‘yilgan bojxona va soliq imtiyozlari bilan bir qatorda to‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalar jalb etayotgan quyidagi iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari uchun qator imtiyozlar mavjud:

1. Radioelektron sanoat buyumlari va kompyuter hamda hisoblash texnikalari uchun butlovchi qismlar ishlab chiqarish;
2. Yengil sanoat;
3. Ipakchilik sanoati;
4. Qurilish materiallari sanoati;
5. Parranda go‘shti va tuxum yetishtirish;
6. Oziq-ovqat sanoati;
7. Sut-go‘sht mahsulotlari sanoati;
8. Kimyo-farmatsevtika sanoati.

Ushbu korxonalar asosiy faoliyati bo‘yicha daromad solig‘i, mol-mulk solig‘i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va hududlarni obodonlashtirishdan olinadigan soliq, ekologiya solig‘i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq, shuningdek Respublika yo‘l fondiga majburiy to‘lovlari to‘lashdan ozod etiladi.

Qayd etilgan soliq imtiyozlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri shaxsiy xorijiy sarmoyalar quyidagi hajmda jalb etilganda taqdim etiladi:

- 300 ming AQSh dollaridan 3 mln. dollargacha — 3 yil muddatga;
- 3 mln. AQSh dollardan 10 mln. dollargacha — 5 yil muddatga;
- 10 mln. AQSh dollaridan ortiq — 7 yil muddatga.

Xorijiy sarmoyadorlarga taqdim etiladigan qo‘shimcha kafolatlar va himoya choralari O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan kafolatlar taqdim etilishi,

investitsion loyihalarni moliyalashtirishda yordam ko'rsatish, maxsus soliq va to'lov rejimini yaratish, loyihalarni amalga oshirish ustidan davlat monitoringini o'tkazish va qonunchilikka muvofiq boshqa chora-tadbirlarni kiritishimiz mumkin.

Soliq stavkasining normal darajadaligi uchun mamlakatimizga kirib kelayotgan investitsiyalar hajmining o'sib borishini kuzatishimiz mumkin. Quyidagi jadvalda mamlakatimiz iqtisodiyotiga yillar mobaynida kirib kelayotgan investitsiyalar hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

1-jadval

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar(mln. AQSH dollarri)

<i>Yillar</i>	<i>Jami</i>	<i>To 'g'ridan-to 'g'ri xorijiy investitsiyalar</i>	<i>Nisbat(foizda)</i>	<i>Mutloq o'zgarishi (+,-)</i>
2000	727,5	105,2	14,46	622,3
2005	617,1	422,6	68,48	194,5
2010	2824,5	2454,7	86,91	369,8
2015	3248,5	2387,6	73,50	860,9
2017	3348,2	2493,3	74,47	854,9

Manba: www.stat.uz Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti.

Yuqoridagi jadvalda yillar mobaynida mamlakatimiz iqtisodiyotiga kirib kelayotgan investitsiyalar hajmi haqida ma'lumotlar berilgan. Bundan ko'rishimiz mumkin-ki, investitsiyalar hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Bunga sabab esa mamlakatimizda olib borilayotgan soliq siyosati, iqtisodiyotimizning barqarorligi kabi bir qator omillardir.

Soliq yukini kamaytirish hamda investorlarga soliq imtiyozlarini berishga qaratilgan yangi tahrirdagi soliq konsepsiyasi qabul qilinganligi hammamizga ma'lum. Soliq Konsepsiyasidan ko'zlangan bosh maqsadni aniq belgilab olish va shunga munosib ravishda konseptual o'zgartirishlarni amalga oshirish. Amaliy nuqtai nazardan quyidagi yo'nalishlarga ustuvorlik qaratilgan konsepsiyalarini misol tariqasida keltirib o'tish mumkin:

- asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar barqarorligini ta'minlash;
- aholini ijtimoiy muhofaza qilish va yangi ish o'rnlari yaratilishini rag'batlantirish;
- tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash;
- davlat budjeti parametrlari defitsiti yuqori bo'lishining oldini olish;
- mahalliy budgetlar daromad manbalarini va mahalliy organlarning moliyaviy mustaqilligini oshirish.

Yuqoridagi yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida hamda qulay investitsion muhit yaratish va soliq yukini kamaytirish, qo'shimcha qiymat solig'ini iqtisodiyotga qo'llash chora-tadbirlari amalga oshirish vazifalarining barchasi yangi soliq konsepsiyasida belgilab qo'yilgan.

Chuqur o'ylab amalga oshirilayotgan soliq siyosati mamlakat iqtisodiyoti rivojiga juda katta hissa qo'shamdi. Puxta o'ylangan soliq siyosati asosida aholini tadbirkorlikka bo'lgan qiziqishlarini oshirish hamda ularning tadbirlikka undash mumkin. O'z-o'zidan ko'rinish turibdiki, past soliq stavkasi investorlarni jalb qiladi.

Ya'ni investorlar har doim yuqori foyda olishni ko'zlab ish qiladi. Agar soliq stavkasi past darajada bo'lsa, investorlarning daromadi oshadi va bu holat mamlakatga boshqa investorlarning ham investitsiya kiritishiga undovchi omil bo'lib hisoblanadi.

Soliq yukini yengillashtirish asosida investitsion jozibadorlikni oshirish mumkin. Bunda to'g'ri investitsion muhitga bittagini soliq omili ta'sir ko'rsatmaydi. Investitsion muhitga soliq omiladan tashqari yana bir nechta omil ta'sir ko'rsatadi. Lekin bu yerda soliq omili investitsion muhitga ta'sir ko'rsatuvchi eng asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham soliq siyosati asosida mamlakatga kirib kelayotgan investitsiyalar hajmini ko'paytirish hamda shu orqali mamlakat iqtisodiyotini jadal rivojlanishiga erishish mumkin.

Soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatichilagini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkin-ki, bugungi kunda mamlakatimizda investitsion muhitni shakllantirish ishlari jadal amalga oshirilmoqda. Buning sababi iqtisodiyotni rivojalantirish ya'ni ishlab chiqarish hajmini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda aholi farovonligini ta'minlashdir. Bunday holatga erishishda eng muhim va katta ta'sir ko'rsatuvchi omil bu mamlakatda olib borilayotgan soliq siyosatidir. Soliq siyosati investitsion muhitga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham chuqur va puxta o'ylangan soliq siyosati asosida mamlakatda qulay investitsion muhitni shakllantirish va mamlakat iqtisodiyotiga kirib kelayotgan investitsiyalar hajmini oshirish mumkin.

**д.э.н., проф. Н.Р.Кузиева
А.А.Усманова магистр
ТГЭУ**

ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАЛОГОВОГО АДМИНИСТРИРОВАНИЯ НА ПРИМЕРЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА

В настоящее время в Республике Узбекистан уделяется особое внимание развитию и совершенствованию налоговой системы. Так, одним из аспектов приоритетных направлений развития и либерализации экономики в Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017 — 2021 годах является продолжение курса на снижение налогового бремени и упрощения системы налогообложения, совершенствование налогового администрирования и расширение мер соответствующего стимулирования. Для достижения намеченных задач с целью совершенствования налоговой системы страны необходимо изучить опыт развитых стран.

Новые преобразования в области политики и экономики, изменение правовых и бюджетных отношений между уровнями и ветвями власти требуют проведения адекватной налоговой политики, построения эффективной,

**ЎЗБЕКИСТОНДА СОЛИҚ ВА МОЛИЯ ТИЗИМИНИ
РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ КОНЦЕПЦИЯЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШ
ИСТИҚБОЛЛАРИ**

*Республика илмий-амалий анжумани
материаллари тўплами*

*Муҳаррирлар:
Вахабова М.М., Камилова Д.Д.,
Мадумарова Г.Э.*

*Техник муҳаррирлар:
Гулямова Г.Ф., Рахимова К.Э.*

*Мусаҳҳих
Қаршиев Ш.Д.*

Компьютерда саҳифаловчи

*Курбонов Х.А.
Бабаев Ш.Б.*

*Мазкур конференция материаллари ТДИУда бажарилаётган Ф-1-104
“Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида интеллектуал капитал
ҳисобининг услубиятини ишилаб чиқиши” мавзусидаги илмий лойиҳа доирасида
чоп этилди.*

*Босишга рухсат этилди 20.11.2019 й. Қоғоз бичими 60x80 1/16
Шартли босма табоғи 33 б.т. Адади 100 нусха
325-сонли буюртма.*

*Тошкент давлат иқтисодиёт универстети
100003, Тошкент шаҳри, Ислом Каримов кўчаси, 49-уй.*